




QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2019 yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot(xizmat)larining umumiy hajmi 722,7 mlrd.so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 100,4 foizni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 619,9 mlrd.so'mni (100,0 foiz), o'rmon xo'jaligida – 93,5 mlrd.so'mni (101,7 foiz), baliq xo'jaligida – 9,3 mlrd.so'mni (114,1 foiz) tashkil qildi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi



Xususan yuqori o'sish sur'atlari Mirzaobod (101,3 foiz), Sayxunobod (101,3 foiz) tumanlarida, Oqoltin (100,5 foiz) va Shirin (100,1 foiz) shahrida kuzatildi. Boyovut (100,0 foiz), Gulistan (100,0 foiz) Sirdaryo (100,0 foiz), Xovos (100,0 foiz) tumanlarida esa aksincha past sur'atlar kuzatildi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmatlar)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi




Viloyatning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Boyovut tumanining ulushi 16,4 foizni tashkil etdi va hududlar bo'yicha etakchilik qilmoqda, Sayxunobod tumanining mos ravishda 13,5 foiz va Guliston tumani 13,3 foiz ko'rsatkich bilan keyingi o'rinni egalladi. Eng kam ulush Mirzaobod (10,0 foiz), Oqoltin (9,1 foiz) va Xovos (8,6 foiz) tumanlarida qayd etildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari


2019 yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining o'sishi 2018 yilning mos davriga nisbatan 100,4 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 99,5 foizni, chorvachilik mahsulotlari – 101,0 foizni tashkil qildi.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlar umumiy hajmining 84,7 foizi – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 12,1 foizi – fermer xo'jaliklariga, 3,2 foizi – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida



Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar Yangiyer shahridan tashqari barcha hududlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.

Dehqonchilik

2019 yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 86,2 mlrd.so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 99,5 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 11,9 foizni tashkil qildi.



Hosilni yig'ib olish. 2019 yilning yanvar – mart oylarida 1,2 ming tonna (93,0 foiz) sabzavot yetishtirildi.


Chorvachilik



2019 yilning yanvar-mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 530,5 mlrd, so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 101,0 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy xajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 73,4 foizni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 13,5 ming tonna go'sht (2018 yilning yanvar-martiga nisbatan 0,1 foizga ko'p), 50,1 ming tonna sut (3,6 foizga), 33,4 mln.dona tuxum (4,5 foizga), 0,1 ming tonna jun, (3,7 foiz) ni tashkil qildi.

Asosiy turdagi chorvachilik va baliqchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo'jalik toifalarining ulushi




Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tirik vaznda go'shtning umumiy hajmidan 97,1 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sutning 94,1 foizi, tuxumning 83,6 foizi, juning 78,2 foizi, ham dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi.

Yirik shoxli qoramollar va parrandalar bosh soni

2019 yilning 1 aprel holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 396,6 ming boshga, shu jumladan sigirlar – 134,2 ming boshga, qo'y va echkilar – 286,6 ming boshga, parrandalar – 1929,6 ming boshga etdi.

2018 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 5,7 ming boshga (1,5 foizga), shu jumladan sigirlar – 2,0 ming boshga (1,5 foizga), qo'y va echkilar – 5,3 ming boshga (1,9 foizga), parrandalar – 90,8 ming boshga (4,9 foizga) ko'paydi.

Xo'jalik toifalarining chorva mollari va parrandalar bosh sonidagi ulushi



- Fermer xojaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xojaliklari
- Qishloq xojaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2019 yining 1 aprel holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni ho'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 5,6 foizi fermer xojaliklari hissasiga, 92,9 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xojaliklariga, 1,5 foizi qishloq xojaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 9,2 foizi fermer xojaliklariga, 89,5 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xojaliklariga, 1,3 foizi qishloq xojaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek parrandalar umumiy sonidan 6,9 foizi fermer xojaliklariga, 74,5 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xojaliklariga, 18,6 foizi qishloq xojaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi

Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

• 230-86-25
• 230-86-26